

**HUQUQIY ONGNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH YO'LLARI VA IMKONIYATLARI
ПУТИ РАЗВИТИЯ ПРАВОСОЗНАНИЯ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ
И УНИВЕРСАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ
WAYS TO DEVELOP LEGAL CONSCIOUSNESS BASED ON NATIONAL
AND UNIVERSAL VALUES**

Ismoyilova Oynur Jumanboy qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti milliy g'oya
ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu mavzu huquqiy ongning mazmuni va uning jamiyat hayotidagi o'rnini milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq holda yoritadi. Ishda o'zbek xalqiga xos qadriyatlar — hurmat, adolat, mahalla, oila va mas'uliyat kabi tushunchalarning shaxs huquqiy ongini shakllantirishdagi ta'siri ko'rsatiladi. Shu bilan birga, inson huquqlari, tenglik, erkinlik, bag'rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlarning huquqiy madaniyatni global tamoyillar asosida rivojlantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Mavzuda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning bir-birini to'ldirishi, ularning uyg'unligi jamiyatda qonun ustuvorligi, adolat va huquqiy madaniyatning mustahkamlanishiga xizmat qilishi haqida fikr yuritiladi.*

Аннотация: *Данная тема освещает содержание правового сознания и его место в жизни общества в связи с национальными и универсальными ценностями. В работе показано влияние ценностей, характерных для узбекского народа — уважения, справедливости, махаллы, семьи и ответственности — на формирование индивидуального правового сознания. Вместе с тем раскрывается значение универсальных ценностей, таких как права человека, равенство, свобода и толерантность, в развитии правовой культуры на основе глобальных принципов. В теме рассматривается взаимодополнение национальных и универсальных ценностей, их гармония, способствующая укреплению верховенства закона, справедливости и правовой культуры в обществе.*

Annotation: *This topic highlights the content of legal consciousness and its role in the life of society in connection with national and universal values. The work demonstrates the influence of values characteristic of the Uzbek people — respect, justice, mahalla, family, and responsibility — on the formation of individual legal consciousness. At the same time, it reveals the importance of universal values such as human rights, equality, freedom, and tolerance in developing legal culture based on global principles. The topic discusses the complementarity of national and universal values and their harmony, which contributes to strengthening the rule of law, justice, and legal culture in society.*

Kalit so'zlar: *huquqiy ong, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, adolat, huquqiy madaniyat, inson huquqlari, uyg'unlik.*

Ключевые слова: правовое сознание, национальные ценности, общечеловеческие ценности, справедливость, правовая культура, права человека, гармония.

Keywords: legal consciousness, national values, universal human values, justice, legal culture, human rights, harmony.

Huquqiy ongning yuksalishi jamiyatning ma'naviy va huquqiy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Uni rivojlantirishda milliy qadriyatlar hamda umuminsoniy tamoyillar bir-birini to'ldiruvchi asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Milliy an'ana, urf-odat va ma'naviy meros fuqarolarning o'z jamiyatiga hurmatini kuchaytirs, umuminsoniy qadriyatlar esa huquqiy madaniyatni global talablarga moslashtiradi. Ularning uyg'unligi jamiyatda qonun ustuvorligi, adolat, mas'uliyat va fuqarolik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Huquqiy ong tushunchasi ma'no jihatidan keng qamrovli, tasniflash va tahlil qilish murakkab bo'ldan tushuncha hisoblanadi. Ijtimoiy ongning bir shakli sifatida falsafiy fanlarda o'rganiladigan bu tushuncha huquqiy fanlar, sotsiologiya va psixologiyaning ham muhim ob'ektlaridan biri hisoblanadi. Bu tushunchani tub ma'nolarini o'rganish va tahlil qilish uchun eng avvalo ong tushunchasiga to'xtalish lozim. Avvalo huquqiy ong va huquqiy madaniyatga olimlar tomonidan berilgan turlicha ta'riflar bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi, jumladan, professor Islomov huquqiy ongga shunday ta'rif beradi: "Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g'oyalar, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta'riflash mumkin. Professor Dmitrievning ta'rificha: "Huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari yig'indisidir". Huquqiy madaniyatga berilgan ta'riflarga kelsak, U. Tajixanov va A. Saidovlar o'zlarining "Huquqiy madaniyat nazariyasi" nomli kitobida huquqiy madaniyatga shunday ta'rif berishadi: "Huquqiy madaniyat deganda jamiyatda qaror topgan huquqiy tizimning darajasini, xalqning bu huquq tizimidan xabardorlik darajasini, fuqarolarning qonunga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarning ijro etilish darajasi, huquqqa rioya qilmaganlarga muvohiq bo'lish, qonunga itoatkorlik darajasini tushunamiz. Demak, yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo'lsak, qabul qilinayotgan qonunlar, har qanday normativ-huquqiy hujjatlar, huquq sohasida bo'ladigan o'zgarishlardan toliq tarzda xabardor bo'lib, o'rganib chiqilishi natijasida huquqiy ong va tushunib yetib unga amal qilinishi esa huquqiy madaniyatni shakllantiradi. Huquqiy madaniyatning yuksak darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim vazifa sanaladi. Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy ongini shakllantirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishning zarururiy talabidir. Haqiqatdan ham shunday, huquqiy immunitet shakllangan shaxsga tashqaridan kirib

keladigan yot g'oyalar, qarashlar, qonunga xilof xatti-harakatlar o'z ta'siriga ega bo'lmay qoladi. Ijtimoiylashuv natijasida shaxslar ezgulik va adolat, inson sha'ni va uning toptalishi hamda erkinlik va qullik kabi qonuniyatning mavjudligini anglab idrok etishadi. "Nima yaxshi-yu nima yomonligini" tushunib yetishda esa ularga aynan huquqiy savodxonlik, huquqiy yetuklik yordam beradi. Mamlakatimizda mustaqillikka erishganimizdan so'ng aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Jumladan, 1997yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" qabul qilingan edi. Huquqiy ongning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, u individual tajriba doirasidan tashqariga chiqmaydi. Shuning uchun u o'z rivojlanishida aniqlangan ob'ektiv ijtimoiy qonuniyatlarni yanada kengroq umumlashtirish darajasiga intiladi, ya'ni nazariy bo'ladi. Nazariy huquqiy ongda uchta qatlam mavjud: yuristlarning kasbiy huquqiy ongi, huquqiy nazariyaning o'zi va huquqiy mafkura. Nazariy huquqiy ong amaldagi va rivojlanayotgan huquqiy tizimni ma'naviy ravishda ko'paytiradigan ilmiy tushunchalar tizimiga o'xshaydi. Huquqiy ongning har xil turlari mavjud, ularni bir necha asoslarga ko'ra tasniflash mumkin: tuzilishi (huquqiy g'oyalari va huquqiy tuyg'ulari), darajasi (ilmiy, kasbiy, kundalik), sub'ektlari (ommaviy, guruh, individual) va boshqalar bo'yicha tasniflash mumkin. ma'lum bir jamiyatda mavjud bo'lgan va uning huquqiy haqiqatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan g'oyalar, qarashlar, fikrlar, nazariyalar. Huquqiy ong – bu fuqarolarning qonunlar, me'yoriy hujjatlar va jamiyatdagi huquqiy normalarni tushunish, ularga amal qilish va boshqalarni ham shu qoidalar asosida tarbiyalash qobiliyatidir. Jamiyatda huquqiy ongning yuksalishi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, jinoyatchilikni kamaytirish, fuqarolarning o'z huquq va majburiyatlarini to'liq anglashiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, huquqiy ong jamiyatda adolat, tenglik va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish orqali demokratik jarayonlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, huquqiy ongni yuksaltirish har bir davlat va jamiyat uchun ustuvor vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allaberganov Karimbergan HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINI O'RGANISHNING NAZARIYASI.

2. HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI YUKSALTIRISH DAVR TALABI Ergashev Iskandar Termiz Muhandislik-texnologiya Instituti, 2-bosqich talabasi.